

**Ta'lim sohasida online konferensiyalar va vebinarlar tashkil etish****Kengesbaeva Ozoda Jetkenshek qizi**

Nukus davlat texnika universiteti o'quvchisi

Annotatsiya: Bugungi global dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. An'anaviy o'qitish shakllari bilan bir qatorda onlayn formatdagi ta'lim vositalari, xususan, konferensiyalar va vebinarlar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, 2020-yildan keyin pandemiya davrida bu shaklning ahamiyati sezilarli darajada ortdi. Endilikda onlayn konferensiyalar nafaqat zarurat, balki o'qituvchilarning doimiy bilim yangilashi, innovatsion tajriba almashuvi va ilmiy faoliyat yuritishining muhim vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Onlayn konferensiya va vebinarlar tushunchasi. Onlayn konferensiya — bu ilmiy-amaliy yoki metodik yo'nalishda o'tkaziladigan ko'p ishtirokchili, masofadan turib o'tkaziladigan majlisdir. Vebinar (webinar) — bu “web” va “seminar” so'zlarining qo'shilmasi bo'lib, internet orqali real vaqt rejimida olib boriladigan interaktiv seminarni anglatadi. Ushbu formatlar o'rtasida farq bor: konferensiyada bir nechta chiqishlar va sessiyalar bo'lishi mumkin, vebinarda esa bitta mavzuga doir ma'ruza va muhokama olib boriladi. **Tashkiliy jarayonlar.** Onlayn konferensiya va vebinarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratish zarur: **Maqsad va mavzuni aniqlash** — dolzarb, amaliy foydali va auditoriyaga qiziqarli mavzu tanlanadi. **Platformani tanlash** — Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Webex kabi xizmatlar. **Spikerlar va moderatorlar** — tajribali mutaxassislar, fan doktori yoki amaliyotchi o'qituvchilar taklif



qilinadi. **Ro'yxatdan o'tkazish** — ishtirokchilar uchun maxsus havola yoki forma orqali ro'yxatga olish. **Reklama va axborot tarqatish** — ijtimoiy tarmoqlar, pochta orqali taklifnomalar. **Geografik chegaralarsiz ishtirok**.

Dunyoning istalgan nuqtasidan ishtirok etish mumkin. Chekka hududlardagi o'qituvchilar ham teng imkoniyatga ega bo'ladi. **Xarajatlarning kamayishi** Sayohat, joylashuv, bosma materiallar kabi xarajatlar yo'q. Organizatorda ham, ishtirokchida ham xarajatlar ancha kam bo'ladi. **Moslashuvchanlik va vaqt tejallishi** Ishtirokchilar o'zlariga qulay joy va vaqtda qatnashishi mumkin. Yozib olingan vebinarlar keyinchalik ham ko'riladi. **Keng auditoriyani qamrab olish**. Ko'proq ishtirokchilar jalb qilinadi (o'qituvchilar, talabalar, ota-onalar). Xalqaro auditoriyaga chiqish imkoniyati mavjud. **Interaktiv imkoniyatlar**. Savol-javob, chat, test, so'rovnoma, slayd va video orqali ishtirok kuchayadi. Platformalarning zamonaviy funksiyalari (reaktsiya belgilar, “raise hand” funksiyasi) orqali jonli muloqot bo'ladi. **Tajriba va bilim almashinuvi**. Turli sohalardagi ekspertlar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati. Innovatsion pedagogik yondashuvlarni tezroq o'rganish va tatbiq etish. **Arxivlash va tahlil qilish imkoniyati**. Vebinarlarni yozib olish orqali keyinchalik o'rganish va tahlil qilish mumkin.

Onlayn konferensiyalar va vebinarlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun mos raqamli platformani tanlash muhim omildir. Platforma tanlashda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- Ishtirokchilar soni (kattaroq auditoriya uchun stabil ishlash)
- Interaktivlik darajasi (savol-javob, chat, so'rovnoma)
- Yozib olish imkoniyati
- Platformaning texnik talab va qulayligi

Narxi (bepul yoki pullik versiyalar)



Zoom - Interaktiv sessiyalar (breakout rooms, reactions, screen sharing) Video yozib olish imkoniyati Oson interfeys. **Cheklovlari:** Bepul versiyada 40 daqiqa cheklov, Katta auditoriyalar uchun pullik rejalar talab etiladi. O'qituvchilar va ta'lim loyihalari uchun mos.

Microsoft Teams - Office 365 bilan to'liq integratsiya. Foydalanuvchilarni muassasa orqali boshqarish qulay. Chat, fayl ulashish va video orqali doimiy aloqa

Google Meet- Bepul va oddiy ishlatish mumkin. Gmail va Google Calendar bilan integratsiya. Mobil qurilmalarda yaxshi ishlaydi

Webex- Kengaytirilgan xavfsizlik. Katta hajmdagi onlayn tadbirlar uchun mos. Interfeysi murakkabroq. Katta miqyosdagi akademik konferensiyalar uchun foydali.

BigBlueButton. Maxsus ta'lim uchun ishlab chiqilgan. Real vaqtli doska, video, chat, slayd va testlar mavjud.

Onlayn konferensiyalar va vebinarlar ta'lim sohasida katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ularni to'g'ri tashkil etish orqali o'qituvchilar va o'quvchilarning salohiyatini oshirish, ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Kelgusida bu yo'nalishda zamonaviy vositalarni tatbiq etish va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev Sh. “Raqamli ta'lim asoslari”. – Toshkent, 2022.
2. UNESCO. “Digital learning policies in education”. – Paris, 2020.
3. Anderson, T. “The Theory and Practice of Online Learning”. – Athabasca University Press, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va normativ hujjatlari (2020-2024).